



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 11 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 11

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 11



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Рахбар Муртазаева МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚА ДАВЛАТЛАРИДА ИЛМ-ФАННИНГ ФЕМИНИЗАЦИЯЛАШУВИ.....	5
2. Тўлқин Алиев ТОШКЕНТ ШАҲРИДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ.....	16
3. Нодирабегим Ваисова ВКЛАД Ю.Ф. БУРЯКОВА В ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОРИИ СОГДИАНЫ.....	25
4. Sevara Elmurodova MUSTAQILLIK YILLARIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR.....	32
5. Risqiniso Maxmudova O'ZBEKISTON SSRDA ALIFBO SIYOSATINING GEOSIYOSIY MAQSADLARI.....	38
6. Mohira Matnazarova ILK TEMIR DAVRIDA OROLBO'YI KO'CHMANCHI AHOLISINING IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTI.....	44
7. Nargiza Raxmatova O'RTA OSIYO XALQLARI MUSIQA MADANIYATI TARIXIDAN.....	48
8. Фаррух Разаков СТАНОВЛЕНИЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ И ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ С ГОСУДАРСТВОМ ШЕЙБАНИДОВ.....	54
9. Hilola Normamatova CHOCHDA ZARB ETTIRILGAN G'ARBIY TURK XOQONLIGI TANGALARIDAGI DINIY- SIYOSIY RAMZLAR.....	63
10. Нодира Холмонова РОССИЯНИНГ ХИВА ХОНЛИГИДА ЮРИТГАН ИҚТИСОДИЙ - ПУЛ СИЁСАТИ (айрим тадқиқотлар мисолида).....	67
11. Rashid Xolmurodov JIZZAX VILOYATIDA TURIZMNING RIVOJLANTIRILISHI.....	72
12. Davlatbek Qudratov O'ZBEKISTON VA BANGLADESH: ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTI DOIRASIDA IQTISODIY VA GUMANITAR HAMKORLIK ISTIQBOLLARI.....	79



Rashid Mamatqulovich Xolmurodov,
Jizzax davlat pedagogika universiteti, Tarix fakulteti,
O‘zbekiston tarixi kafedrasida dotsenti

JIZZAX VILOYATIDA TURIZMNING RIVOJLANTIRILISHI

For citation: Rashid M. Kholmurodov. DEVELOPMENT OF TOURISM IN THE JIZZAKH REGION. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 11.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17966938>

АННОТАЦИЯ

Ushbu ilmiy maqolada Jizzax viloyatida turizm sohasining rivojlanish istiqbollari, viloyatning tabiiy va madaniy potentsiallari, turizm infratuzilmasi, ekoturizm va madaniy meros turizmi kabi yo‘nalishlari ilmiy tahlil etiladi. Shuningdek, turizmning ijtimoiy-iqtisodiy ta‘siri, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar keltiriladi. Maqola Jizzax viloyatida turizmni samarali rivojlantirish uchun strategik yo‘nalishlar va davlat siyosatining ahamiyatiga urg‘u berilgan. Natijalar hududning turizm salohiyatini oshirish orqali mahalliy iqtisodiyot va aholi turmush darajasini yaxshilash imkoniyatlariga xizmat qilishi bayon etilgan. Jizzax viloyatining geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va madaniy merosining o‘ziga xosligi, viloyat turizm salohiyatini oshirishda rekreatsion va madaniy-tarixiy ob‘ektlarning roli ko‘rsatib o‘tilgan. Jizzaxda turizm sohasining hozirgi holati, xususan, kiruvchi va chiquvchi turizm turlari, hududdagi turistik firma va tashkilotlar faoliyati, mehmonxona-salomlashish infratuzilmasining rivojlanishi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, turizm turlaridan ekoturizm, madaniy va meros turizmi, agro- va arxeologik turizm yo‘nalishlari yuzasidan soha istiqbollari tahlil qilingan.

Maqolada turizmning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, jumladan mahalliy aholi bandligi va daromad manbai sifatidagi roli, hududiy turizmni rivojlantirishda infratuzilma, xizmat ko‘rsatish sifati va davlat siyosati muhimligini ta‘kidlangan. Jizzax viloyatida turizmni yanada rivojlantirish uchun ilg‘or texnologiyalar joriy etish, yangi innovatsion yo‘nalishlarni ochish va mahalliy potentsialdan samarali foydalanish zarurligi yuzasidan turizm klasterlari yaratish hamda ekologik va madaniy turizmni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Maqola Jizzax viloyatida turizmning barqaror rivojlanishi uchun ilmiy va amaliy asoslarni yaratish maqsadiga va hudud iqtisodiyoti hamda madaniy muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Jizzax viloyati, davlat siyosati, turizm sohasi, turizm turlari, ekoturizm, madaniy va meros turizmi, agro- va arxeologik turizm, turistik firma va tashkilotlar, xizmat ko‘rsatish.

Рашид Маматкулович Холмуродов,
Доцент кафедры истории Узбекистана, исторический факультет
Джизакского государственного педагогического университета

РАЗВИТИЕ ТУРИЗМА В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

АННОТАЦИЯ

В этой научной статье представлен научный анализ перспектив развития туристического сектора Джизакской области, природного и культурного потенциала региона, туристической инфраструктуры, экотуризма и туризма по культурному наследию. Также представлены социально-экономическое влияние туризма, существующие проблемы и предложения по их устранению. В статье подчеркивается важность стратегических направлений и государственной политики для эффективного развития туризма в Джизакской области. Результаты свидетельствуют о том, что увеличение туристического потенциала региона послужит возможностям для улучшения местной экономики и повышения уровня жизни населения. Подчеркиваются географическое положение Джизакской области, уникальность ее природных ресурсов и культурного наследия, роль рекреационных и культурно-исторических объектов в повышении туристического потенциала региона. Рассматривается современное состояние туристического сектора Джизакской области, в частности, виды въездного и выездного туризма, деятельность туристических фирм и организаций в области, а также развитие гостиничной и гостеприимной инфраструктуры. Также анализируются перспективы сектора с точки зрения видов туризма: экотуризм, культурно-исторический туризм, агро- и археологический туризм. В статье подчеркивается социально-экономическое значение туризма, в том числе его роль как источника занятости и дохода для местного населения, значение инфраструктуры, качества обслуживания и государственной политики в развитии регионального туризма. Даны рекомендации о необходимости внедрения передовых технологий, открытия новых инновационных направлений и эффективного использования местного потенциала для дальнейшего развития туризма в Джизакской области, создания туристических кластеров, развития экологического и культурного туризма. Цель статьи – создание научных и практических основ для устойчивого развития туризма в Джизакской области, улучшения экономики и культурной среды региона.

Ключевые слова: Джизакская область, государственная политика, сфера туризма, виды туризма, экотуризм, культурно-исторический туризм, агро- и археологический туризм, туристические компании и организации, сфера услуг.

Rashid M. Kholmurodov,

Associate Professor of the Department of History of Uzbekistan,
Faculty of History, Jizzakh State Pedagogical University

DEVELOPMENT OF TOURISM IN THE JIZZAKH REGION**ABSTRACT**

This research article presents an analysis of the tourism sector development prospects in the Jizzakh region, the region's natural and cultural potential, tourism infrastructure, ecotourism, and cultural heritage tourism. It also examines the socioeconomic impact of tourism, existing challenges, and proposals for addressing them. The article emphasizes the importance of strategic directions and public policy for the effective development of tourism in the Jizzakh region. The results indicate that increasing the region's tourism potential will provide opportunities to improve the local economy and raise the population's standard of living. The article highlights the geographical location of the Jizzakh region, the uniqueness of its natural resources and cultural heritage, and the role of recreational and cultural-historical sites in enhancing the region's tourism potential. The article examines the current state of the tourism sector in the Jizzakh region, in particular, the types of inbound and outbound tourism, the activities of travel agencies and organizations in the region, and the development of hotel and hospitality infrastructure. The article also analyzes the sector's prospects in terms of tourism types: ecotourism, cultural-historical tourism, agro- and archaeological tourism. This article highlights the socioeconomic significance of tourism, including its role as a source of employment and income for local residents, as well as the

importance of infrastructure, service quality, and public policy in the development of regional tourism. Recommendations are provided on the need to implement advanced technologies, explore new innovative areas, and effectively utilize local potential for the further development of tourism in the Jizzakh region, including the creation of tourism clusters and the development of eco- and cultural tourism. The purpose of this article is to establish a scientific and practical foundation for the sustainable development of tourism in the Jizzakh region and improve the region's economy and cultural environment.

Index Terms: Jizzakh region, public policy, tourism, types of tourism, ecotourism, cultural and historical tourism, agro- and archaeological tourism, travel companies and organizations, and services.

1. Долзарблиги:

Zamonaviy globallashuv va iqtisodiy diversifikatsiya sharoitida turizm sohasi milliy iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi PF-6195-son Farmoni va 2023-yil 26-apreldagi PQ-180-son Qaroriga muvofiq, turizmni rivojlantirish strategiyasi mamlakatning hududiy tengsizliklarini bartaraf etish, aholining bandligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishga qaratilgan. Ushbu kontekstda Jizzax viloyatida turizmning rivojlantirilishi mavzusi alohida dolzarblik kasb etadi. Viloyat O'zbekistonning markaziy mintaqasida joylashgan bo'lib, uning tabiiy-landshaft va madaniy-tarixiy merosi sayyohlik oqimini jalb etish uchun noyob imkoniyatlar taqdim etadi. Mavzuning dolzarbligi nafaqat iqtisodiy o'sish potensialida, balki hududiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashda ham namoyon bo'ladi, chunki turizm kam mehnat talab qiladigan, yuqori daromad keltiradigan va mahalliy jamoalarni jalb etuvchi soha sifatida tanilgan.

2. Meto'dlar va o'rganilganlik darajasi:

Jizzax viloyatida turizm rivojlantirish mavzusini o'rganishda ko'pincha aralash metodlar (nazariy va empirik) qo'llanilgan. Tadqiqotchilar nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'lanishlarni ta'kidlashgan holda, quyidagi asosiy metodlarni ishlatgan:

1. **Tahlil va sintez metodlari:** Jizzaxning tabiiy va madaniy potensialini sintez qilish orqali rivojlanish istiqbollari aniqlangan. Bu metod viloyatning geografik xususiyatlari (tog'lar, ko'llar) va iqtisodiy ko'rsatkichlarini (mehmonxonalar soni, sayyohlar oqimi) birlashtirishga yordam bergan.

2. **Taqqoslash va analogiya metodlari:** Jizzaxni boshqa viloyatlar (masalan, Samarqand yoki Buxoro) bilan taqqoslab, turizm infratuzilmasidagi farqlarni aniqlash uchun ishlatilgan.

3. **Empirik va statistik metodlar:** Statistik ma'lumotlar (Jizzaxstat ma'lumotlari) asosida sayyohlar soni, mehmonxonalar sig'imi va eksport ko'rsatkichlari tahlil etilgan.

4. **Zamonaviy texnologik metodlar:** So'nggi tadqiqotlarda GIS (Geografik Axborot Tizimi) va masofaviy zondlash (RS) texnologiyalari ekoturizm xaritalarini yaratish uchun ishlatilgan. Masalan, Jizzaxning tabiiy sharoitlari GIS orqali modellashtirilgan, bu rivojlanish uchun yangi yondashuv sifatida baholangan.

Jizzax viloyatida turizm rivojlantirish mavzusi O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, xususan 2010-yillardan boshlab faol o'rganila boshlandi. Dastlabki tadqiqotlar 1990-yillarda boshlangan bo'lib, masalan, 1992-yilda Xoja Nuriddin madrasasini tiklash ishlari oldidan olib borilgan arxitektura va madaniy meros bo'yicha tadqiqotlar mavzuning asosini tashkil etdi. So'nggi 5-10 yilda esa mavzu bo'yicha 20 dan ortiq ilmiy maqola va dissertatsiya chop etilgan.

G. Janizoqova (2018) va X. Jo'Rayeva (2022) kabi tadqiqotchilarning ishlari viloyatning turizm istiqbollarini iqtisodiy va geografik nuqtai nazardan yoritgan. O'rganilganlik darajasi bo'yicha quyidagi xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- **Yuqori daraja:** Tabiiy va ekologik turizm (Zomin milliy parki, Novqa qishlog'i) bo'yicha tadqiqotlar faol.

- **O'rtacha daraja:** Tarixiy va ziyorat turizmi (Baxmal, Do'stlik tumanlari) – bu sohada 2023-2024 yillarda yangi ishlar paydo bo'lmoqda.

- **Past daraja:** Ekoturizm xaritalari va GIS texnologiyalari asosidagi tadqiqotlar yangi boshlanmoqda, ammo chuqur tahlillar kam.

Umuman olganda, mavzu O‘zbekiston ichida o‘rta darajada o‘rganilgan, ammo xalqaro hamkorlik va empirik ma’lumotlar bazasi yetishmaydi. Bu esa kelajakdagi tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar ochadi.

3. Tadqiqot natijalari:

O‘zbekiston sayyohlik sohasida ulkan salohiyat va imkoniyatlarga ega mamlakatlardan biri. Yurtimizning o‘ziga xos tabiati, boy moddiy va ma’naviy merosi, tarixiy va me’moriy obidalari xorijliklarni doimo o‘ziga jalb qilib keladi. Bu esa, o‘z navbatida mazkur sohani jadal rivojlantirish, yurtimizga kelayotgan xorijiy sayyohlar sonini yanada ko‘paytirish, ichki turizmni kengaytirishni taqozo etadi.

Jizzax viloyati ham o‘zining tabiiy sharoiti, iqlimi, reliefi, hayvonot va nabotot dunyosi bilan respublikamizning boshqa hududlaridan ajralib turadi.

Jizzax viloyati maydoni 21,1 ming kv.km ni tashkil etib, tog‘li hududlar (Chimqortog‘, Molguzar va Nurota tog‘ tizmalari), Aydarko‘l ko‘li va tabiiy buloqlar (yiliga 16-20 mln m³ suv chiqaruvchi) kabi resurslarga ega. Iqlimi mo‘tadil: yozda +26...+28°C, qishda +1...+4°C, yog‘ingarchilik 400-500 mm, quyoshli kunlar soni 2800-3000 soatga yetadi. Bu sharoitlar yilning barcha fasllarida rekreatsiya faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Tog‘li zonalarda (Baxmal, Zomin, G‘allaorol, Forish tumanlari) archazorlar, bodomzorlar, yong‘oqzorlar, shifobaxsh o‘tloqlar va noyob flora-fauna (oq tirnoqli ayiq, yovvoyi cho‘chqa, bo‘rsiq, alqar, kalxat, qora turna) mavjud.

Betakkor manzaralari, turistik salohiyati ko‘pchilikni hayratga solib, kundan-kunga zamonaviy sayyohlik markaziga aylanib bormoqda. Hozirda vohamizning 427 ta madaniy meros qadamjolari davlat muhofazasiga olingan bo‘lib, ularning 100 tasi tarixiy obida-ziyoratgoh, 268 tasi arxeologik, 59 tasi monumental yodgorlik hisoblanadi. Shuningdek, 161 ta turizm yo‘nalishiga kiritilgan joylar mavjud bo‘lib, u hududlar asosan eko va agroturizm salohiyatiga ega.

Viloyatdagi mavjud madaniy-tarixiy meros ham muhim o‘rin tutadi: qadimiy "Quyosh taqvimi" (Saklar taqvimi), Huttosh, Qantartosh, Hamaltosh toshlari, shuningdek, ziyoratgohlar (Sa‘d ibn Vaqqos, Usnat ota, Novqa ota, Xo‘jamushkent ota, Parpi ota, Sayfin ota, Savruk ota, Qulfisar ota) sayyohlarni jalb etuvchi omillar hisoblanadi. Ushbu resurslar ekoturizm, agroturizm, arxeologik va etnografik turizm turlarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, Zomin Xalq bog‘i (48 ming ga) va Zomin qo‘riqxonasi (78 ming ga, 100+ dorivor o‘simlik, 150+ hayvon turi) biologik xilma-xillikni saqlash va turistik marshrutlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Turizmning rivojlantirilishi Jizzax viloyatining iqtisodiy o‘rishiga sezilarli hissa qo‘shadi. 2025-yilning birinchi yarmida viloyatda sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasida 200 ta loyiha ishga tushirilgan bo‘lib, ularga 662 mln AQSH dollar investitsiya kiritilgan, shundan turizm infratuzilmasi ulushi sezilarli. Baxmal tumanida turizm eksporti 2025-yilda 6 mln AQSH dollarini tashkil etgan, sport va ekoturizm yo‘nalishlari rivojlanmoqda. Viloyatga 2025-yil oxirigacha 45 ming xorijiy va 170 ming ichki sayyoh qabul qilishi kutilmoqda.

Ichki turizmni rivojlantirish, sayohatchi va ziyoratchilar uchun qulayliklar yaratish maqsadida viloyatda “O‘zbekiston bo‘ylab sayyohat” tamoyili asosidagi sayohat yo‘nalishi ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra 42 ta tarixiy, 8 ta agroturizm, 6 ta madaniy ko‘ngilochar joylar, 4 ta tog‘li va o‘rmon xo‘jaligi hududi, 33 ta mehmonxona, 115 ta mehmon uyi, 12 ta hunarmandchilik ustaxonasining faoliyati sifatini oshirish ishlari yo‘lga qo‘yilgan.

Ikki yildan buyon “Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar sayohati”, “Keksalar turizm oyligi”, “Yoshlar” va “Mehnat” jamoalaridan iborat mahalliy aholining respublika bo‘ylab sayohatlari tashkil etilmoqda. Shu davr mobaynida viloyatimizdan respublikaning boshqa viloyatlari bo‘ylab 55185 nafar ekanligi kuzatilgan. Zomin tumanida Duoba, Baxmal tumanida Novqa, Forish tumanida Uxum qishloqlari “Turizm qishloq”lariga aylantirilmoqda. “Turizm qishloq”larida 63 ta oilaviy mehmon uyi tashkil etilib, 150 ta qo‘shimcha ishchi o‘rinlar yaratilgan.

“Oilaviy sayohat” ta‘tili doirasida ijtimoiy reklama sifatida ommaviy axborot vositalarida targ‘ibot ishlari olib borilmoqda. Bannerlar, tashqi ekranlar uchun videoroliklar tayyorlanib, shahar

hamda tumanlar markazidagi ekranlarga o'rnatilgan. Ayni damda ham "Har bir oila - tadbirkor" dasturi doirasida ziyoratgohlar atrofida turizm talablariga javob beradigan oilaviy mehmon uylarini tashkil qilishni yanada keng ko'lamda yo'lga qo'yish ishlari amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy jihatdan, turizm aholining bandligini oshiradi: viloyat aholisi 1,4 mln kishini tashkil etib, 83% o'zbeklar va 70+ millat vakillaridan iborat bo'lib, zichligi 65,5 kishi/kv.km. Mehmonxonalar soni 2021-yildagi 170 tadan 258 taga, o'rinlar 4959 dan 6614 taga oshgan. 12 ta turkompaniya faoliyat yuritib, 30 ga yaqin yangi marshrut (jumladan, 3-5 kunlik ekoturizm marshrutlari) ishlab chiqilgan. Bu nafaqat daromadni oshiradi, balki madaniy almashinuv va hududiy tenglikni ta'minlaydi.

Istiqbolda bu rejalarning amalga oshirilishi natijasida 2022-2026-yillarda joylashtirish vositalari sonini 347 taga, ulardagi xonalar sonini 3338 taga va o'rinlar sonini 8774 taga yetkazish rejalashtirilgan. Viloyatning Zomin tumanida Duoba, Forish tumanida Uxum, Sayyod, Do'stlik va Uchquloch, Arnasoy tumanida Zarafshon va Baxtli mahallalari hududlarida turizmni rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Ushbu mahallalarda infratuzilmani rivojlantirish uchun respublika budjetidan 12,9 milliard so'm yo'naltiriladigan manzilli dastur tasdiqlandi. Dastur doirasida 65 kilometr yo'l ta'mirlandi, 15 kilometr elektr tarmog'i qurildi va 3 ta yangi transformator o'rnatildi, 3,5 kilometrli piyodalar va velosiped yo'laklari barpo etildi. Shuningdek, 199 ta joylashtirish vositasi, jumladan, 13 ta hostel, 40 ta kemping, 103 ta oilaviy mehmon uyi 20 ta o'tov va 23 ta chodirli uy qurilayapti.

Mazkur "yo'l xaritasi"ga kiritilgan loyihalar asosida 300 tadan ortiq yangi ish o'rni yaratilishi va 1,5 million nafardan ortiq sayyoh va ziyoratchi tashrifi mo'ljallangan.

Bizga yaxshi ma'lumki, Jizzax viloyati geografik joylashuviga ko'ra tog'lar, qir-adirliklar, ko'l va umuman turistlarni jalb qila olish uchun keng imkoniyatga ega hudud hisoblanadi.

Yurtimizda bugungi kunda turizm sohasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, ichki va tashqi turizmni rivojlantirishga berilayotgan yuksak e'tibor natijasida viloyatimizda ham turizm sohasi yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Shundan kelib chiqib joriy yilda viloyatimizga 140 ming nafar xorijiy turistlarni jalb qilish orqali 31 mln dollar turizm xizmatlar eksportini amalga oshirish maqsadida turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda xorijiy va mahalliy tashrif buyuruvchilarni olib qolish bo'yicha 5 kunlik marshurt 7 yulduz turizm xalqasi ("turistik uchburchak") ishlab chiqildi.

Viloyatda 2022-2026-yillarda turizmni yanada rivojlantirish uchun alohida dastur ishlab chiqilgan. Dastur ijrosi doirasida Zomin, Forish, Baxmal tumanlari va Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida qo'shimcha sayyohlik zonalar va dam olish maskanlari barpo etish bo'yicha qiymati 300 million dollarlik loyihalar amalga oshirilishi va 25 mingga yangi ish o'rni yaratilishi belgilangan.

Zomin turistik-rekreasion zonasi hududida "Suffa platosi 2400" xalqaro umummavsumiy kurorti va O'rikli soy turizm majmuasida uzunligi 2600 metr bo'lgan zamonaviy osma dor yo'li, 300 metrli "Osma ko'pri" qurilib ishga tushirildi. 3 yulduzli 3 ta mehmonxona qurilmoqda.

Shuningdek, ushbu hududda madaniy-sog'lomlashtirish, ekopark, sport maydonchalari va boshqa turizm obektlari tashkil etilishi ham nazarda tutilgan. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida plyaj turizmini rivojlantirishga qaratilgan turistik-rekreasion zona barpo etish belgilangan.

Zomin tumanida loyihaga asosan 2023-yilda yangi fuqaro aviatsiyasi ayeroportining sun'iy uchish-qo'nish yo'lagi, harakatlanish yo'laklari, perron va havo kemalari to'xtash joylari qurildi. Yo'lovchi terminali barpo etilib, hududi obodonlashtiriladi. Elektr ta'minoti tizimi qurilib, transformator podstansiyalari, yoritish signal uskunalari va tizimi o'rnatiladi.

Hududda, shuningdek, yoqilg'i quyish majmuasi qurilib, maxsus texnikalar bilan ta'minlanadi. Ayeroport xizmati binosi va inshootlari barpo etiladi. Qo'nish tizimi radiotexnika va aloqa uskunalari bilan jihozlanadi. Havo harakatini boshqarish binosi bunyod etiladi. Dispetcherlik jihozlari, meteorologik uskunalari va meteorologik ma'lumotlarni ko'rsatish vositalari o'rnatiladi.

Zomin tumanida barpo etilayotgan bu ayeroport kundan kunga turizm va sayyohlik jozibadorligi oshib borayotgan mamlakatimizga tashrif buyurayotgan xorijlik sayyohlar va yurtdoshlarimiz uchun yanada qulaylik yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 30-31-mart kunlari viloyatga tashrifi chogʻida Jizzaxda ekoturizm va agroturizmga alohida eʼtibor qaratish, bunda oʻrmon xoʻjaliklari balansidan turizm obektlarini tashkil qilishga yer ajratish, ularga olib boruvchi yangi ichki yoʻllar qurish hamda mavjudlarini taʼmirlash boʻyicha bergan topshiriqlari asosida Baxmal oʻrmon xoʻjaligi hududidan 100 gektar yer tanlab olindi.

Mazkur turizm obektlariga olib boruvchi 5 kilometr ichki yoʻl yangidan qurildi, 3 kilometr elektr tarmogʻi tortildi. Bu yerda Wi-Fi zonalar tashkil qilindi. Bir vaqtning oʻzida 1,5 ming sayyohni sigʻdira oladigan kemping, oilaviy mehmon uylari va hostellar qurildi. Sayyohlarga qoʻshimcha qulayliklar yaratish maqsadida axborot-resurs markazi, nomozxona va oshxona ochildi.

Bugungi kunda viloyatda 92 ta ziyorat va tarixiy obʼetlar, 1 ta madaniy koʻngilochar eko parklar, 5 ta togʻli va oʻrmon xoʻjaliklari, 45 ta gastronomik eko agroturizm obektlari, 677 ta hunarmandchilik ustaxonalari va boshqa turizm obektlari mavjud boʻlib, bir vaqtning oʻzida 6340 nafar mehmonni qabul qilish imkoniyatiga ega jami 232 ta joylashtirish vositalari faoliyati yoʻlga qoʻyilgan.

Viloyatga 2022-yilda 2019-yildagiga nisbatan 15 barobar koʻp, yaʼni 1 million 406 ming, jumladan, 7,8 ming (2017-yildagiga nisbatan 3 barobar koʻp) xorijlik sayyoh tashrif buyurdi. Sayyohlarning asosiy qismini Fransiya, Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Turkiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Isroil, AQSH, Hindiston mamlakatlari fuqarolari tashkil etmoqda. Qayd etish lozimki, yiliga besh ming nafardan ortiq sayyoh, asosan, Xonbandi sharsharasi, Nurota qoʻriqxonasidagi oʻziga xos hayvonot va oʻsimlik dunyosi, qoʻriqxonatirofidagi tarixiy obidalar – Forish tumanidagi Tikchasoy, Asrafsoy, Andegensoy, Majrumsoy, Hayotsoydagi petrogliflar, Majrum, Oʻxum qishloqlaridagi qoʻrgʻonlar qoldiqlari hamda Majrum qishlogʻidagi tanasining diametri taxminan 24 metr, balandligi esa 20 metr, ildizlari kavagiga 4-5 odam sigʻadigan necha ming yillik sharq savri (archa) daraxtini tomosha qilish uchun tashrif buyurmoqda.

Ushbu archa dunyoning eng yirik igna bargli daraxtlaridan biridir. Nurota davlat qoʻriqxonasi hududidagi qadimiy masjid xarobalari oldida joylashgan ulkan archa goʻzalligi bilan nom qozongan. Mazkur tabiat moʻjizasini oʻz koʻzi bilan koʻrgani kelayotgan mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimi kun sayin koʻpaymoqda. Archaning yoshi hozirgicha aniqlanmagan. Ilgari daraxt tanasidagi kovak devor bilan oʻralgan va qishloq bolalari uchun maktab vazifasini oʻtagan.

Forishning Aydar-Arnasoy koʻllar tizimi hududida joylashgan “Oxus Adventure” dam olish maskanida fin uslubidagi 10 ta uy, 10 ta autentik oʻtov mavjud boʻlib, 100 ga yaqin sayyohni joylashtira oladi. Bu yerda yurtimizning eng yirik suv havzalaridan biri boʻlgan Aydarkoʻlning ochiq maydonlarini bemalol tomosha qilish mumkin. Shuningdek, tuyada sayr qilish, tuya suti bilan davolash, belgilangan hududda baliq ovlash hamda qayiqda sayr qilish xizmatlari mavjud.

Ayni paytda viloyatda sayyohlarni joylashtirish vositalari soni 226 taga yetkazildi, jumladan, 31 ta mehmonxona, 142 ta oilaviy mehmon uyi, 20 ta sanatoriy va sogʻlomlashtirish maskani, 20 ta kemping majmuasi, 13 ta hostel faoliyati yoʻlga qoʻyilgan, ulardagi xonalar soni 2267 ta, oʻrinlar soni 6223 tani tashkil etmoqda.

2026-yilga borib xorijiy sayyohlar tashrifini 14 mingga, mahalliy sayyohlarni 1,5 million nafarga yetkazish koʻzda tutilgan. Viloyatda turizm sohasini rivojlantirish borasidagi mazkur tizimli ishlar yangi ish oʻrinlari yaratish, aholi daromadlari va turmush darajasini yaxshilashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shunday qilib, sayohatlar jahon xalqlarining ijtimoiy-madaniy turmush sharoitida tarbiya, taʼlim va jismoniy chiniqish vositasi sifatida muhim oʻrinlarni egallagan. Oʻzbekiston sharoitida tarixiy va madaniy obidalarga sayr-sayohatlar tashkil qilish, ularda aholining barcha qatlam hamda toifalaridagi kishilarni faol ishtirok ettirish shu bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ayniqsa taʼtil paytlarida va ulugʻ sanalarga bagʻishlangan nufuzli tadbirlarda oʻquvchi-yoshlar, talabalar va mehnatkashlar ommasi doimiy ravishda ishtirok etib kelmoqda.

Toshkentning bugungi jamoli, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarning arxeologik, madaniy obidalari xorijiy mamlakatlarning ham sayyohlarini oʻziga rom etmoqda. Bu borada Jizzax viloyatida ham keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, sohaga boʻlgan eʼtibor tufayli turizm viloyat iqtisodiyotining asosiy “drayver”laridan biriga aylanmoqda.

So‘nggi yillarda Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasi sezilarli darajada modernizatsiya qilingan. 2025-yilda 30 ta loyiha amalga oshirilmoqda: 4 ta mehmonxona, 12 ta dam olish maskani, 2 ta turistik davolash majmuasi, 2 ta hostell, 2 ta oilaviy mehmon uyi, 1 ta ijara yotoqxonasi, 7 ta umumiy ovqatlanish ob‘ekti va 1 ta motel. Yo‘llar ta‘mirlash (104,4 km), elektr tarmoqlari (18 km, 3 ta transformator) va aloqa (13 km, 10 ta ustun) rejalashtirilgan. Zomin aeroporti va yangi yo‘llar sayyohlar oqimini oshirishga xizmat qilmoqda. "Aydar-Arnasoy" ko‘llar tizimida zamonaviy turizm markazi tashkil etilishi, unda ekoturizm, baliqchilik va suv sportlari rivojlantirilishi ko‘zda tutilgan.

Xitoy bilan hamkorlikda Jizzaxda innovatsiya markazi ochilishi qishloq xo‘jaligi va madaniy-turizmni rivojlantirishga qaratilgan. Turizm xizmatlari eksporti 50 mln AQSH dollaridan oshirish maqsad qilingan bo‘lib, bu mamlakat miqyosidagi o‘shish tendensiyasiga mos keladi: 2024-yilda O‘zbekistonga 7,957,2 ming kiruvchi sayyoh kelgan.

Rivojlanish jarayonida infratuzilma muammolari (yo‘llarning qoniqarsiz holati, qishda issiqlik ta‘minoti, aloqa sifati) va mavsumiy oqim cheklovlari mavjud. Masalan, O‘rmonchi qishlog‘iga yo‘l va Forish, Arnasoy tumanlaridagi transport muammolari sayyohlar sonini kamaytiradi.

Viloyatda turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni berish mumkin: ekoturizm va agroturizmni rivojlantirish uchun turistik mehmon uylarini ko‘paytirish, mahalliy brendlarni (sut, go‘sht mahsulotlari, milliy taomlar) targ‘ib qilish; rekreatsiya klasterlarini tashkil etish (Zomin, Baxmal, G‘allaorol); normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va imtiyozlar berish orqali ichki va tashqi turizmni rag‘batlantirish. Shuningdek, ziyorat va tabiiy brendlarni xalqaro reklama orqali bozorga chiqarish zarur.

4.Xulosa:

Jizzax viloyatida turizmning rivojlantirilishi mavzusi bugungi kunda yuqori dolzarflik kasb etgan bo‘lib, u iqtisodiy diversifikatsiya, hududiy rivojlanish va barqaror o‘shishning kalit omillaridan biridir. Tabiiy va madaniy potentsialni to‘liq ishlatish orqali viloyat nafaqat mahalliy, balki xalqaro turizm markaziga aylanishi mumkin. Davlat siyosati va investitsiyalarning qo‘llab-quvvatlashi sharoitida ushbu soha O‘zbekistonning umumiy turizm strategiyasiga muhim hissa qo‘shadi. Kelgusida ilmiy tadqiqotlar va amaliy loyihalar mavzuni yanada chuqurroq o‘rganishga xizmat qilishi lozim.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Rahmonqulov S. Hayolat va tassurotlarga boy sayohat. "Yangi O‘zbekiston", 2022 yil, 21-oktyabr soni.
2. Usmonov M., Toshboyev Z. Turizm istiqbollari. "Jizzax haqiqati". 2023 yil 18-yanvar soni.
3. Kalonov Z. Zominda aeroport barpo etilmoqda. Jizzax haqiqati. 2023 yil 15-mart.
4. Jizzax viloyati turizm boshqarmasining joriy hujjatlari. 2025 yil.
5. Xolmurodov R.M. Tarixiy o‘lkashunoslik va turizm. Jizzax – 2025 yil.
6. Xoldorov T. Turizm, sayyohlik. T., 2022.
7. Og‘a Burtutli. Xo‘jamushkent ota ziyoratida. Vatan, 2006.
8. Eraliyev V., Ostonqulov I., Aqchayev F. O‘zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari. T., 2017.



Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000